

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA, ERTAKNI O'RGATISH METODIKASI

**Arobova Shohsanam Akram qizi**

*Andijon viloyati Andijon shahar*

*7-umum ta'lif maktabi amaliyotchi psixologi.*

**Annostatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada: xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'lmish ertakning, boshlang'ich sinflarda qanday o'qitish haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Xalq og'zaki ijodi, ertak, ertaklar, biri, ham, oddiy, ikki, bolalar, hayotiy, maishiy, sinf,*

### ERTAKNI O'QISH METODIKASI

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, m'a'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligidagi real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Ertak xalq og'zaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. To'g'ri, ayrim ertak matnida kichik-kichik lirik She'rler uchrab turadi. Ammo bunday ertak namunalari juda kam bo'lib, ertakchilik haqidagi tasavvurimizga alohida ta sir ko'rsatmaydi.

Ertaklar o'ziga xos mavzu va g'oyaviy yo'nalishi hamda talimiy-estetik funksiyasi bilan ajralib turadi. Ideal qahramonning g'ayri tabiiy kuchlarga qarshi chiqishi, mo'jizaviy narsalarni o'zga yurtlardan olib kelishi, devlar olib qochgan qizlarni qutqarishi, o'zga yurt malikalari, parizodlarga oshiq bo'lishi, bedavo dardlarga davo topishi kabilar ertaklarning mavzu doirasini belgilaydi. Ertakning o'ziga xos xususiyati voqeabandlik, biror voqeani mukammal hikoya qilish tarzida ko'zga tashlanadi. Ertaklar vogelikni hayotiy va xayoliy uydirmalar vositasida kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan shaklda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Ertak uchun ham xalq og'zaki ijodiga xos barcha sifatlar: og'zakilik, jamoaviylik, an anaviylik, anonimlik, versiya va variantlilik xosdir. Fantastika ertak mezoni, uning joni va qonidir.

Ertaklar fantastikaning tutgan o'rniga va me'yoriga qarab ikki guruhg'a bo'linadi:

1. Fantastika ustun bo'lgan ertaklar.
2. Hayotiylik ustun bo'lgan ertaklar.

Ertak atamasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asarida «etuk» shaklida qo'llangan. Xalqimiz orasida hozirgi paytda ham cho'pchak, o'tuk, matal, varsaqi, bayt kabi so'zlar ertak ma'nosini anglatadi. Ertaklar xalqning ijodkorvakillari tomonidan hayotiy, maishiy, sarguzasht, ba'zan-

ijtimoiy voqealarni to'qib qiziqarli tarzda bayon etishi natijasida vujudga kelgan. Ularda xalqning tarixi, dunyoqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurash falsafasi aks etgan. Ertaklarning paydo bo'l shida qadimiy urf-odat, marosimlar va miflar hal qiluvchi ro'l o'ynagan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibtidoiy tushunchalar xayoliy shaklda ifodalangan davrlardan boshlangan. Chunki bu davrlarda aniq voqealari, urug' va qabilalar turmushi bilan bog'liq miflar, an'anaviy urf-odatlar o'z kuchi va maishiy vazifasini yo'qotib, kishilarongida g'aroyib narsa bo'lib anglashila boshlagan edi. Ertak motivlarining dastlabki namunalari talimiy-didaktik xarakterda bo'lib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy mohiyat kasb etgan Qadimgi zamonlardan og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan ertaklar zamonning o'zgarishi natijasida ro'y bergan yangiliklarni ham o'ziga singdirib boradi. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning Ta'kidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlarda keng tarqalgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilishida umumiy o'xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu turi qadimdan yaratilganligidan, turli xalqlar maishiy hayotida o'xshashliklarning ko'pligidan darak beradi. Ammo bu degan so'z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga O'zbek xalq og'zaki ijodi olib kelmaydi. Chunki ertaklar mavzuidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida, maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida, kasb-hunarlarta rifida milliy til, milliy ruh alohida aks etadi. Xalq ertaklarining ommaviyligi va yashovchanligini ham asosan ularning ana shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin. O'zbek xalq ertaklari Buyuk Karimov, Fattoh Abdullayev, Mansur Afzalov, Komiljon Imomov, G'ayrat Jalolov, Xudoyberdi Egamov, Tojiboy G'oziboyev, Ro'zimboy Safarov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Rahmon buva kabi o'nlab ertakchilardan ertaklarni yozib olganlar, tahlil qilganlar va nashrga tayyorlaganlar.

Folklorshunos olimlar xalq ertaklarini quyidagicha tasnif qiladilar:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrli ertaklar.
3. Hayotiy-maishiy ertaklar.

Aslini olganda sehr va mo'jiza umuman ertak janrining mohiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Ertaklarning boshlanish qismidagi «Bir Bor ekan, biryo'q ekan» so'zlaridan iborat boshlanma («zachin») dayoq hikoya qilinadigan voqeaga ishonish yoki ishonmaslik tinglovchi ixtiyorida ekani anglatiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan, ertaklarning syujet va kompozitsiyasida a'n'a n a v i y m ifolog ik holatning m avjudligi folklorshunos olimlar tomonidan

isbotlangan. Ularning fikricha tom ma'noda ertak janriga mansub bo'lgan har bir asar asosan uch tarkibiy qismidan iboratdir:

1. Ertakning insial qismi, ya'ni boshlanmasi. Folklorshunoslikda bu qism ko'pincha «zachin» nomi bilan yuritiladi.
2. Medial qismi. Bu qismda ertakda hikoya qilinayotgan voqea to'liq bayoniga ega bo'ladi va ertakning qaysi tasnif turkumiga mansub ekanligi dalillanadi.
3. Final qismi. Bu qismda ertakning yakuniy xulosasi o'z ifodasini topadi.

Ertakning insial qismi odatda, zamon, vaqt, makon va asar qahramoni haqidagi dastlabki ma'lumotlarni berishga bag'ishlanadi. Medialda esa yetishmovchilik, safar, vazifa, raqib, taqiq, kurash kabi omillar an'anaviy unsurlar sifatida ishtirok etadi. Final, ya'ni ertakning tugallanma qismi asosan qahramonning murod-maqsadiga etishidan iborat bo'ladi. Ammo bu voqeanning o'zini shartli ravishda safardan qaytish, to'y, raqibni jazolash, murod-maqsadiga etish kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligini ko'rsatish zarur. O'zbek ertaklarining salmoqli qismini hayvonlar haqidagi og'zaki hikoyalar tashkil etadi. Ammo hayvonlar haqidagi ertaklar asar mazmunida ishtirok etayotgan personajlarning o'rniqa ko'ra faqat sof hayvonlar haqidagi ertaklar va odamlar ham ishtirok etadigan ertaklarga bo'linadi. Bu ertaklarning bosh mazmuni bevosita hayvonlar bilan bog'liq bo'lgani uchun ular tasnifida mana shu turga mansub asarlar sifatidan qayd etilgan. Mazkur ertaklarda har bir hayvonning tabiiy xususiyatini bo'rttirib ko'rsatish yetakchi o'rinda turadi. Bo'rining vahshiyligi, tulkinining ayyorligi, eshakning befahmili, sherning o'rmon podshosi ekanligi biz nazarda tutgan ertaklar mazmunining asosini tashkil etadi. Bu ertaklarda hayot majoziy ham aks etishi mumkin. Chunki xalq hayvonlar obrazini ertakda tasvirlash orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirish maqsadini ham nazarda tutgan.

Hayotiy-maishiy ertaklarga tinglovchilarining ehtiyoji alohida sezilarli bo'lgan. Bunday ertaklar o'zbek xonardonlaridagi farzand va ota, farzand va ona, o'gay ona va farzandlarning an'anaviy tarzdagi o'zaro munosabatlarini aks ettirgan. ertakning har bir tinglovchisi ijro etilayoigan asarlardan o'z hayotini izlagan, o'z taqdirini ko'rishga intilgan.

Hayotiy ertaklarda hunar o'rganish, ilm olish, odamlarga Yaxshilik qilish, yovuz kuchlardan asranish kabi turmush masalalari o'z badiiy inoikosini topgan. Ko'pincha ertakning yakuni xalqning birorta maqolidan iborat bo'lgan. Ertaklar yana bir jihatdan -tarkibidajumboq, topishmoq bor-yo'qligiga ko'ra ham tasnif qilinadi:

1. Oddiy ertaklar.
2. Topishmoqli ertaklar.

Oddiy ertaklarda topishmoqlar yoki jumboqlar bo'lmaydi.

Topishmoqli ertaklar o'zbek folklorida oz bo'lsa ham uchrab turadi.

Shunday ertaklardan biri «Dono yigit» yoki «Aqli yigit» deb nomlanadi.

Kambag'al yigit mehmonga kelgan podshohga «Topilsa bitta bilan, topilmasa ikkita bilan mehmon qilaman» deydi.

Yana bir ertakda podshoh bilan keksa otaxon suhbatida jumboqli iboralar qo'llanadi:

- To'qqizni uchg'a urmadingizmi?
- O'ttiz ikki qo'ymadi-da?
- Bir g'oz yuboraman, patini yulasizmi?
- Xo'p bo'ladi, shohim.

Topishmoqli ertaklar oddiy odamlarning zukkologini ulug'lovchi asarlardir.

Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalami maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining — yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahm dil, saxiy, adolatli ham da ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli bo'ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, „Do'stlikda gap ko'p ekan" o'zbek xalq ertagida (4-sinf o'qish savodxonligi 2-qism) asosiy mazmuni, do'stlik, rahmdillik, o'zgalarga yordam qo'lini uzatish, o'zaro ishonch hurmat, mehribonlik, sadoqatlilik g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, „Bir kunda uch marta hosil bergen daraxt" ertagida (4-sinf O'qish savodxonligi 2-qism) sofдillik, to'g'ri so'zlik, zehnlik, aqllilik, hamda fahm-farosatlilik ziyraklik g'oyasi ilgari surilgan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)",

„Nima uchun?", „... nima uchun sichqon jazoland? (yoki rag'batlantirildi?)",

„Nima uchun ertakdagi ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba’zilaridan yuz o’giradi?)” kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang’ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko’proq o’qitiladi. Lekin hozirgi amaldagi O’qish savodxonligi darsliklarda hayvonlar haqida ertaklar deyarli berilmagan. Boshlang’ich 1-2-3-4-sinf o’qish savodxonligi darsliklarida jami: 6 ta ertak berilgan. Ular quyidagilar:

1. Sumalakxo’r Samolyot. (audio ertak) 1-sinf 1-qism 68-bet.
2. Oshxona buyumlari qanday paydo bo’lgan. 2-sinf 1-qism 72-bet.
3. Vatan mehri. (audio ertak) 4-sinf 1-qism 19-bet.
4. Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt. (audio ertak) 4-sinf 1-qism 78-bet.
5. Qarg’va paxta (Nasiba Erxonova) 4-sinf 1-qism 35 bet.
6. Do’stlikda gap ko’p ekan. (O’zbek xalq ertagi) 4-sinf 2-qism 22-bet.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o’qish, savollarga javob berish, o’quvchilarning o’zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlaming odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi o’quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, am m o ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o’qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning m azm unini yaxshi idrok etishga, sujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o’zaro munosabatlarini to’g’ri tasavvur etishga yo’naltiriladi. Bunda tanlab o’qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, „Vatan mehri” (audio ertak 3-sinf “O’qish savodxonligi” darsligi M.E.Tirova 2023.) ertagini mazmunini o’zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolajonlar sizlarga “Vatan mehri” ertagi yoqdimi?
2. Ertakdagi boshqa mamlakatlarga yurish qilmoqchi bo’lgan podshoh qanday yo’l tutar ekan?
3. Birinchi askar ta’riflagan mamlakat haqida qanday tasavvur ega bo’ldingiz?
4. Ikkinci askar ta’riflagan mamlakatga sizning fikringiz?
5. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
6. Ertakda qatnashgan qahramonlarni ismini daftaringizga yozing?

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida „Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o’qing”, „Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini aytинг“,

„Hayotingizda ertakdagи voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?“ kabi savol-topshiriqlar yordamida O'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, sehrli ertaklar hayotiy-maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotisini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyuştiriladi. Bolalar O'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulqatvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydillar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

„Davlat“ ertagi (4-sinf) oddiy turmushga tegishli hodisalarini tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofimizdagi tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhabat o'tkaziladi. Bunday suhabat ertakdagи badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to 'g'ri tushunishga yordam beradi. „Davlat“ ertagi matni ustida ishslash jarayonida o'quvchilar

„Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?“,

„Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?“ kabi savollarga javob topish orqali ertak qahram onlarini baholaydilar, ahil va inoq bo'lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar.

Ertak ustida ishslashda bolalami ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi. O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishslashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinali foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. M asalan, „Yo'lbars, Tului va Bo'ri“ ertagida „Tog“ echkisi siz ulug'imizniki bo'lsin“, „Quyon siz podshohimizning ertalabki nonushtangiz bo'lsin“, „Kiyik kechqurungi taomingiz, qo'y kunduzgi xo'rangingiz bo'lsin“ kabi gaprar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

• Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga etkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta- 'sirchanligini oshirish lozim.

• "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf 2-qism (2021-yil) darsligida ertak haqida nazariy ma'lumot va "Ertakdagi qahramon" degan bob bor edi. Lekin hozirgi amaldagi "O'qish savodxonligi" (2023-yil) darsligida nazariy ma'lumot berilmagan. Bunday bob ham yo'q. Ertaklar ko'pi rasmlar asosida va audio ertak hisoblanadi. Masalan, „Serkaboboning hiylasi“ deb nomlangan audio ertagi berilgan. Ertakni tinglagandan so'ng bolalarga quyidagi savollar berishimiz mumkin bo'ladi.

1. Serkaboboning bolalari qayerda yashar edi?
2. Bo'ri nima qilmoqchi bo'ldi?
3. Echkilar bo'ri haqida kimga aytib berishdi?
4. Arslon nima qildi?
5. Echkilarni bo'ridan qutqargani uchun arslon nima talab qildi?
6. Serkabobo arslonning oldiga kim bilan bordi?
7. Serkabobo arslonga nima dedi?
8. Arslon nima uchun quduqqa sakradi?
9. Ertak nima uchun "Serkaboboning hiylasi" deb nomlangan?
10. Ertakdagi asosiy qahramon kim? Nima uchun?

Ertak g'oyasiga mos xulosa esa „yomg'irdan qochib do'lga tutildi" maqoli bilan ifodalangan. O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zлari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

So'z ma'nolari ustida ishlashda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lgan usullardan biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinf 1-qism "o'qish savodxonligi" "Oshxona buyumlari qanday paydo bo'lgan" ertagida qoshiq, sanchqi, va boshqa oshxona anjomlari dasturxonga qo'yilgani. Ular tilga kirganini, Qoshiqni maqtanganligi, sanchqini esa hafa bo'lganini haqida o'qituvchi o'quvchilarga o'qib so'zlab beradi.

So'ngra O'quvchilarga savol bilan yuzlanadi:

1. "Bolajonlar hammangiz ko'z oldingizga oshxongizdagi barcha anjomlarni keltiring"

2. Qoshiqning fikri to'g'rimidi?
3. Sanchqi nega xafa bo'ldi?
4. Aziz o'quvchilar sizlar qanday oshxona anjomlarini bilasizlar?

deb, o'qituvchi Oshxonda kerakli bo'ladigan anjomlarni rasmlarini o'quvchilarga ko'rsatib, so'ngra rasmlarni teskari qilib, o'qituvchi o'zining parta stoliga tartibli qilib terib qo'yadi. Hamda doskaga 3 guruhga bo'lib chizib qo'yadi. Qani bolajonlar! Hozir Biz "kim bilag'on" o'yini o'takamiz. 1-qator

a'lochilar! 2-qator zukkolar! 3-qator esa Bilimlilar!. Har bir jamoadan bittadan, meni oldimga chiqib, partamdagи siz ko'rib turgan oshxona anjomlarini rasmlarini birini olib, o'ziga xos xususiyatlarini izohlab va nomlarini aytib doskaga yozishingiz kerak bo'ladi. Kim yozib bo'lsa, darrov joyiga borib o'tiradi va o'rniga jamoasidan keyingisi tartibma-tartib chiqib kelib davom etiraveradi. Kim javobni to'g'ri topib, to'g'ri izohlab yozsa 10 ball, javobini topib, ammo noto'g'ri izohlasa 5 ball, hechqanday javob yozolmasa 0 ball hisoblanadi. Qani bolajonlar boshladik. Shu kabi didaktik o'yinlar o'tkazish mumkin va shu didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarni oshxona anjomlari xotirasida yaxshi muhrlanib qoladi yanada darsga qiziqishi ortadi. Lekin darsning yakunida albatta o'quvchilar rag'batlanishi kerak.

Ertak matni bilan ishslash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishslash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

- a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.

2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);

5. Ertakni so'zlab berish;

6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);

7. Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);

8. Vazifani tekshirish va yakunlash;

9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Xalq og'zaki poetik ijodi. Omonulla Madayev, T. Sobitova Toshkent-2010
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. O. Madayev. Toshkent-2010
3. 1-sinf "O'qish savodxonligi" 1-qism ( U. B. Aydarova, N. K. Azimova ) novda nashriyoti Toshkent-2023
4. 2-sinf 1-qism "O'qish savodxonligi" ( U.B.Aydarova "Novda" nashriyoti Toshkent -2023.)

5. 2-sinf 2-qism “O’qish savodxonligi” ( U.B.Aydarova “Novda” nashriyoti Toshkent -2023.)
6. O’qish kitobi 4-sinf darslik. S. Matchinov, A. Shojalilov, X. G’ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov Toshkent- 2020
7. 4-sinf 1-qism “O’qish savodxonligi” (M. E. Toirova “Novda” nashriyoti Toshkent-2023.)
8. 4-sinf 2-qism“O’qish savodxonligi” (M. E. Toirova “Novda” nashriyoti Toshkent-2023.)
9. Ona tili va o’qish savodxonligi 2-sinf darslik 1-2- qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun Toshkent-2021.
10. Ona tili o’qitish metodikasi. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo’ldosheva, Sharoljon Sariyev Toshkent-2009